Jinoyatni toʻgʻri kvalifikatsiya qilish uchun albatta sababiy bogʻlanish aniqlanishi lozim. Baʼzi hollarda shaxs sodir etgan qilmishi va uning oqibati oʻrtasida sababiy bogʻlanishni aniqlash bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Har qanday hodisaning nazariy jihati boʻlgani kabi sababiy bogʻlanish masalasi oldin jinoyat huquqi doktrinasida shakllangan va unga oid turli xil nazariyalar orqali rivojlanib bormoqda. Sud-tergov amaliyotida sababiy bogʻlanishni aniqlash masalasi murakkabdir. Chunki sababiy bogʻlanish tushunchasi kontinental (roman-german) huquq oilasi mamlakatlari jinoyat qonunchilik texnikasida qoʻllanilmaydi. Tergovchi yoki sud qilmishni kvalifikatsiya qilishda albatta jinoyat huquqi nazariyasiga murojaat qilishga majbur boʻladi. Darhaqiqat, jinoyat huquqida, hattoki, monografik ilmiy tadqiqotlar va ishlarda ham sababiy bogʻlanish masalasi batafsil hal etilmagan. Shuningdek, u bilan bogʻliq muammolarning aniq yechimi mavjud emas. Sababiy bogʻlanish bilan bogʻliq amaliyotda yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun ularni amaliyotda qoʻllash va foydalanish mumkin boʻlgan turli xil nazariyalarga murojaat qilinadi. Jinoyat ishi materiallari, sud amaliyot materiallari va sud hukmlarini tahlili amaliyotda sababiy bogʻlanish aniqlash va u bilan bogʻliq masalalar baʼzi qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganligini koʻrsatadi. Jumladan, amaliyotda eng oddiy va yagona sababiy bogʻlanish nazariyasi qoʻllaniladi. U ham boʻlsa – bevosita va bilvosita sababiy bogʻlanish nazariyasi. Ushbu nazariya jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilish vakolatiga ega subyektlar uchun eng qulay va qoʻllanishi oson boʻlgan nazariya hisoblanadi. Jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish bevosita va bilvosita turlarga boʻlinadi. Ushbu nazariya sababiy bogʻlanishning mazkur ikki turiga asoslanadi (Xudaykulov, 2025, p. 84).

Xususan, ingliz jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish ikkiga boʻlinadi: 1) faktik sababiy bogʻlanish (factual causation, causation in fact); 2) yuridik sababiy bogʻlanish (legal causation, causation in law), yaʼni baʼzida u bevosita (proximate) yoki aybli (imputable) sababiy bogʻlanish deyiladi (Witjens, 2014, pp. 164-183).

Javobgarlikni belgilashda sababiy bogʻlanishning tamoyillari muhim oʻrin tutsa-da, yakuniy kelib chiqqan oqibatga bir qator omillar taʼsir koʻrsatadi. Aksariyat hollarda, A shaxs B.ni oʻldirsa yoki yarador qilsa, faktik sababiy bogʻlanish (factual causation) oson aniqlanadi. Huquqiy sababiy bogʻlanish esa ancha murakkabroq boʻlib, jarayonga bir nechta omil aralashgan vaziyatlarda bevosita sababni aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi (Reed et al., 2025, p. 2).


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

Ayblanuvchi boshqalarning harakatlari uchun jinoyat qonuni boʻyicha qay darajada javobgar boʻlishi yoki javobgarlikka tortilmasiligi jinoyat huquqida sababiy bogʻlanishdagi asosiy masala boʻlib, ingliz huquqida aralashuvga qarshi yangi akt (novus actus interveniens) doktrinasi bilan tartibga solinadi (Herring, 2025, p. 13).

B.V. Zdravomislov va Z.B. Soktoyevlarning fikricha, bevosita va bilvosita sababiy bogʻlanishdan foydalangan holda sababiy bogʻlanishni aniqlash oddiy, buning uchun jinoiy qilmish ijtimoiy xavfli oqibatning bevosita yoki bilvosita sababi boʻlishi talab etilishini va bevosita sababiy bogʻlanish jinoiy qilmish va uning oqibati oʻrtasidagi aloqani anglatishini aytishadi (Soktoev, 2017, p. 80, 150).

M. Usmonaliyev va P. Bakunovlar: "Jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish sababiylik kategoriyasi nazariyasiga asoslanadi. Sababiylik toʻgʻrisidagi nazariy qoida ijtimoiy xavfli qilmish tufayli keltirilgan zarar uchun javobgarlik masalasini hal qilishda qoʻllanadi. Shunga koʻra, subyektning ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligi va yuz bergan zararli oqibat oʻrtasidagi sababiy bogʻlanishni aniqlash jinoiy javobgarlikni belgilashda hal qiluvchi omillardan biridir", – deb ta'kidlashadi (Usmonaliyev et al., 2010, pp. 186-187).

M.X. Rustambayevning ta'kidlashicha, hozirgi zamon milliy jinoyat qonunchiligi va sud amaliyoti sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish bilan ijtimoiy xavfli oqibat oʻrtasidagi sababiy bogʻlanishning obyektivligidan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, qilmish bilan oqibat oʻrtasida har doim obyektiv ketma-ketlik mavjud boʻladi. Bunday yondashish moddiy tarkibli jinoyatlarning zaruriy belgisi boʻlmish sababiy bogʻlanishning mohiyatini ochib berishga yordam beradi (Rustambayev, 2018, pp. 167-168).

R. Kabulov va T. Kuchkarovlarning fikricha, jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish asosida harakat va oqibat oʻrtasidagi analogik tobelikni tushunish kerak. Sababiy bogʻlanishning mohiyati uning oqibatni yuzaga keltirish va ishlab chiqarilishida namoyon boʻladi (Kabulov et al, 2012, p. 61).

X. Abzalova: "Moddiy tarkibli boʻlgan qasddan odam oʻldirish jinoyatida aybdor shaxsning qilmishi muqarrar ravishda inson oʻlimiga olib keladigan bevosita asosiy sabab boʻlgandagida mazkur hollarda sababiy bogʻlanish mavjudligi tan olinadi", – deb ta'kidlaydi (Abzalova, 2020, p. 57).

A.A. Otajonovning fikricha, jinoiy oqibat va sodir etilgan jinoiy qilmish (formal tarkibli jinoyatlarda) har bir ishtirokchining qilmishi bilan bevosita sababiy bogʻlanish kabi elementlardan tashkil topadi (Otajonov, 2023, p. 36).

Yuqoridagi olimlar tomonidan ilgari surilgan sababiy bogʻlanishning bevosita turi haqidagi ilmiy qarashlarni qoʻllab-quvvatlaymiz. Biroq mazkur nazariyaning kamchiliklaridan biri sifatida shuni aytish mumkin, ushbu bilvosita sababiy bogʻlanish nazariya yordamida ikkinchi darajali ishtirokchilar, ya'ni ishtirokchilikning ba'zi turlari javobgarligini asoslash mumkin emas. Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda ba'zi ishtirokchilarning qilmishlari ijtimoiy xavfli oqibatning roʻy berishida bevosita sabablar boʻlmaydi. Bu nazariya qoidalarining qoʻllanishi koʻp hollarda muayyan darajada qiyinchiliklar tugʻdiradi. Uning qoʻllanishi birinchidan, boshqa ishtirokchilarning qilmishi uchun ularni javobgarlikka tortishda; ikkinchidan, ba'zan bajaruvchining qilmishi uchun uni javobgarlikka tortishda asoslash bilan bogʻliq muammolarni vujudga keltiradi.

Sababiy bogʻlanishni aniqlashdan oldin muayyan jinoiy oqibatni keltirib chiqargan sabab va shart-sharoitlar zanjirini, hodisaning dastlabki va oxirgi nuqtalarini aniqlash talab etiladi. Sabab va shart-sharoitlarning dastlabki va oxirgi nuqtalarida oraliq bogʻliqlik oʻrnatiladi. Shu bilan birga, qanday sharoitlarda shaxs qilmishi kelib chiqqan jinoiy oqibatning

sababi sifatida tan olinishini aniqlash lozim. Shunda jinoiy javobgarlikning obyektiv asosi belgilanadi.

Anglo-sakson jinoyat huquqida faktik sababiy bogʻlanishni (factual causation, causation in fact) aniqlashda alohida ajratib olish usuli keng qoʻllaniladi. Anglo-sakson jinoyat huquqida bu alohida ajratib olish usuli "but-for test" (ammo-tekshirish uchun) deb nomladi (Firkins, 2014, pp. 18-38).

Sababiy bogʻlanish muammosini oʻrganishda sabab va oqibatni alohida ajratib olish (izolyatsiya) tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat huquqi nazariyasidan maʼlumki, har qanday jinoyat muayyan shaxs tomonidan maʼlum joy va vaqt sharoitida sodir boʻladi. Jinoiy harakat sodir etilish paytida yoki undan keyin vujudga kelgan holatlar sabablar rivojlanishiga taʼsir etadi. Shuning uchun ham shaxsning jinoiy qilmishi hech qachon kelib chiqqan jinoiy oqibatning yagona sababi boʻla olmaydi.

M.X. Rustambayevning taʼkidlashicha, qilmish oqibat kelib chiqishining zaruriy sharti boʻlgan taqdirdagina sababiy bogʻlanish mavjud boʻladi, yaʼni bu qilmishsiz oqibat vujudga kelishi mumkin emas (Rustambayev, 2018, p. 168).

Jinoyat huquqi doktrinasida sababiy bogʻlanishni aniqlashning yana bir sharti – jinoiy qilmish va oqibatning vaqt boʻyicha qatʼiy ketma-ketligidir.

B.V. Zdravomislov: "Shaxsni muayyan jinoyat sababli jinoiy javobgarlikka tortish uchun ushbu jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi qilmish oʻz vaqtida ijtimoiy xavfli oqibatlardan oldin sodir boʻlganligini aniqlash kerak", – deb qilmish va oqibatning vaqt boʻyicha ketma-ketligi shart ekanligini bayon qiladi (Zdravomyslov, 2005, p. 147).

M. Usmonaliyev va P. Bakunovlarning taʼkidlashicha, sababiy bogʻlanish vaqt boʻyicha oʻtadigan jarayondir. Muayyan oqibatning kelib chiqishiga shaxs qilmishi sabab boʻlgan ekan, vaqt boʻyicha ular bir-biriga muvofiq boʻlishi kerak. Shunga koʻra, jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish masalasini hal qilishda aybdorga nisbatan qoʻyilayotgan aybda qilmish va oqibat vaqt boʻyicha bir-biriga muvofiq kelmoqdami degan masala aniqlanishi kerak. Agarda sodir etilgan qilmish va kelib chiqqan oqibat vaqt boʻyicha bir-biriga muvofiq kelmasa, demak sababiy bogʻlanish boʻlmaydi (Usmonaliyev & Bakunov, 2010, p. 187).

Darhaqiqat, sababiy bogʻlanishni aniqlashning vaqt mezoni jinoyat huquqi nazariyasida ham amaliyotda ham qoʻllaniladi.

Jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish muammosi bilan bogʻliq quyidagi jihatlarni ajratish mumkin:

1) sodir qilingan qilmish, roʻy bergan oqibat ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof boʻlganligi; 2) sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishi zaruriy shart, yaʼni sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmish tufayli aynan oʻsha jinoiy oqibat roʻy berganligi; 3) ikki yoki undan ortiq jinoiy oqibat roʻy berganda har bir ijtimoiy xavfli oqibatning sababi aynan shu sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish boʻlganligi; 4) qilmish va oqibat orasidagi sababiy bogʻlanish ijtimoiy xavfli qilmish roʻy bergan oqibatning zaruriy sharti boʻlishi lozim. Zaruriy shartning mavjud boʻlishi qilmish va oqibat orasida sababiy bogʻlanish oʻrnatilganligini anglatadi; 5) ikki hodisa yigʻindisi oʻrtasida doimo aloqa mavjud boʻladi. Sababiy bogʻlanish ikkita hodisa yigʻindisi orasidagi aloqadir. Ikki hodisa yigʻindisida birinchisida ijtimoiy xavfli qilmish sodir boʻladi, ikkinchisida esa jinoiy oqibat roʻy beradi. Mazkur sababiy bogʻlanish qoidasi shundan iboratki, jinoiy oqibatning zaruriy shart-sharoitlaridan biri boʻlgan shaxs jinoiy qilmishi boʻlmasa, oʻz-oʻzidan sababiy bogʻlanish boʻlmaydi. Bu ilmiy yondashuv barcha jinoyat huquqida olimlari tomonidan tan olingan. Zaruriy yoki obyektiv qonuniyatlarga asoslangan jinoiy oqibatlarga


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

koʻra javobgarlikka tortish masalasi olimlar tomonidan qabul qilinadi. Baʼzi olimlar jinoyat-huquqiy sababiy bogʻlanish chegarasini aniqlashga urinishadi va yuqoridagi sababiy bogʻlanish qoidasini tan olishadi.

G.A. Esakov, A.N. Traynin va V.N. Kudryasevlarning taʼkidlashicha, agar shaxsning qilmishi zararli oqibat yuzaga kelishi uchun zaruriy shart-sharoit boʻlib xizmat qilgan boʻlsa, bu jinoyat huquqida sababiy bogʻlanishlarni tan olish uchun yetarli. Ammo shaxsning harakati keyingi oqibatlar uchun zaruriy shart-sharoit boʻla olishini yoki aksincha boʻla olmasligini qanday aniqlash mumkin? (Esakov, 2016; Traynin, 1957; Kudryavtsev, 1960).

T. Xasanov: “Aybdorning ijtimoiy xavfli harakatlari bilan yuzaga kelgan jinoiy natija orasida sababiy bogʻlanish zaruriy hisoblanadi, zero oʻgʻrilikning obyektiv tomonini tavsiflaydi”, – deydi (Xasanov, 2019, p. 58).

Darhaqiqat jinoyat huquqi nazariyasida shaxs jinoiy qilmishi jinoyat obyekti va obyektiv tashqi holatda yuz bergan oʻzgarishning zaruriy shart-sharoiti sifatda umum eʼtirof etilgan holda tan olinishi lozim. Maʼlum jinoiy qilmish sodir etilmasa, jinoyat qonunchiligi bilan muhofaza qilinadigan obyektda va tashqi dunyoda oʻzgarishlar yuz bermaydi.

Jinoyat qonunchiligi bilan muhofaza qilinadigan obyektda va tashqi dunyoda oʻzgarishlarni aniqlash uchun *mantiqiy usuldan* foydalanish lozim boʻladi. Bu usuldan foydalangan holda ijtimoiy xavfli qilmish mavjud boʻlmaganda ham ushbu oʻzgarishlar boʻlgan yoki boʻlmaganligi aniqlanadi. Masalan, jinoiy qilmishni umumiy sabablar (sababiy bogʻlanish) zanjiridan mantiqan chiqarib tashlash kerak. Jinoiy qilmish kelib chiqqan oqibatning zaruriy shart-sharoiti nuqtayi nazaridan uni sabablar (sababiy bogʻlanish) zanjiridan chiqarib tashlanishi bilan boshqacha oqibatlar kelib chiqishi zaruriy shart-sharoit – jinoiy qilmishning sodir bermaganligidan dalolat qiladi.

Ushbu qoidani quyidagi mantiqiy matematik algoritmli (ketma-ketlik) formulasida ifodalash mumkin: 1) A – jinoiy qilmish kelib chiqqan oqibat shart-sharoiti, B – sabablar (sababiy bogʻlanish) zanjiri yoki yuz bergan faktlar umumiy yigʻindisi, C – ijtimoiy xavfli oqibat, D – jinoiy oqibat yuz berganligi yoki boshqacha oqibat kelib chiqqanligi, E – jinoyat, F – jinoyat emas. A +B =C = E;  A –B =D = F;  2) A – jinoiy qilmish-kelib chiqqan oqibat shart-sharoiti, B – sabablar (sababiy bogʻlanish) zanjiri, S – yuz bergan faktlar umumiy yigʻindisi, D – jinoiy oqibat yuz berganligi. A + B+ S= D;  B va S yigʻindisi D natijani bermasa, ushbu A jinoiy qilmish – D jinoiy oqibatning sharti (shart-sharoiti) boʻladi.

Yuqoridagi algoritm (ketma-ketlik) matematik formulalardan koʻrinib turibdiki, shaxs tomonidan sodir etilgan jinoiy qilmish yakka oʻzi emas, balki sabablar (sababiy bogʻlanish) zanjiri, tegishli faktor (omil) lar bilan birga sodir boʻlgandagina kelib chiqqan jinoiy oqibatning zaruriy sharti (shart-sharoit) boʻladi. Agar tegishli yuz bergan faktor (omil) lar va sabablar zanjiri bilan oqibat tabiiy ketma-ketlik tartibida roʻy bergan boʻlsa va bunda ijtimoiy xavfli qilmish ishtirok etmagan boʻlsa, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish roʻy bergan jinoiy oqibatning zaruriy sharti boʻlmaydi. Oʻz-oʻzidan ijtimoiy xavfli qilmish va jinoiy oqibat oʻrtasida sababiy bogʻliqlik boʻlmaydi (Xudaykulov, 2025, pp. 91-92).

Yuqorida keltirilgan algoritm (ketma-ketlik) matematik formulani quyidagi amaliy misolda koʻrish maqsadga muvofiq boʻladi.

A. doʻsti B.ning tugʻilgan kuniga taklif etiladi. U tugʻilgan kunga borib, hamkasblari bilan birga juda koʻp miqdorda spirtli ichimlik ichishadi. Taxminan soat tungi 02:30 larda A. uyiga qaytadi. A. uyiga kirganda xotini S. A.dan uyga nimaga kech va uning ustiga oʻta mast holda kelganligini soʻraganida er-xotin oʻrtasida oʻzaro janjal boshlanadi. A. xotini S.ni ogʻir haqoratli soʻzlar bilan haqoratlab, ura boshlaydi. Bunga chiday olmagan uning xotini S. oshxona

burchagida yotgan bolgʻani olib eri A.ning boshiga uradi. A. turgan joyidan yerga yiqilganini koʻrgan xotini S. uni tashlab uyidan chiqib ketadi. S. tushki payt uyiga qaytib kelgach u eri A.ni oʻlik holda topadi. S.ning qilmishi jinoyat qonuniga koʻra kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish bilan kvalifikatsiya qilinib, u mazkur jinoyatni sodir qilishda aybdor deb topiladi. Ammo ushbu jinoyat ishi yuzasidan tayinlangan sud tibbiyot ekspertizasi A.ning oʻlimiga uning xotini S.ning qilmishi emas, balki A.ning koʻp miqdorda spirtli ichimlik ichishi natijasida miyaga qon quyilishi va uning natijasida yurak toʻxtaganligini asosiy sabablar sifatida koʻrsatadi. S.ning qilmishi va A.ning oʻlimi orasida sababiy bogʻlanish yoʻq, deb topiladi va jinoyat ishi tugatiladi (Surkhandarya Regional Court, 2025).

Demak, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsiz) roʻy bergan ijtimoiy xavfli oqibatning zaruriy sababi va shart-sharoiti boʻlishi kerak. Shundagina sodir etilgan jinoiy qilmish va roʻy bergan oqibat orasida sababiy bogʻlanish mavjud boʻladi deb topiladi.

Jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish masalasini hal etish va uni aniqlashda muhim qoidalarga rioya qilish talab etiladi. Ular quyidagilardan iborat: 1) birinchi qoida – ijtimoiy xavfli qilishmish jinoiy oqibatdan oldin sodir etilgan boʻlishi lozim. Jinoiy qilmish – vaqt – ijtimoiy xavfli oqibat qoidasi (Summers, 2018, pp. 793-821).

Misol tariqasida quyidagi sud ishini keltirishimiz mumkin.

Sud hukmiga koʻra B. va S.lar jinoyat qonunida qasddan odam oʻldirish jinoyati bilan aybli deb topilgan va ularning ijtimoiy xavfli qilmishlari shunday kvalifikatsiya qilingan. Bir guruh hamkasblar xizmat safari bilan safarga otlanishadi. A., B. va S. hamkasblar poyezd vagonining bitta kupesidan joy olishadi. Ular poyezdda spirtli ichimliklar ichishadi. Shu payt S. havo almashtirib kelish maqsadida vagon kupesidan chiqadi. A. qattiq mast boʻlib qolib, B.ni haqorat qiladi. Natijada A. va B.lar oʻrtasida janjal chiqadi. Oʻzaro urish janjal natijasida B. A.ning boshiga aroq shishasi bilan uradi va boʻgʻib oʻldirib qoʻyadi. B. A.ni vagon yotoq joyiga yotqizib, ustida choyshab bilan yopib qoʻyadi. Shundan keyin B. vagon kupesini tark etadi. Oradan biroz vaqt oʻtgach, S. kirib keladi u A.ni uxlab yotibdi deb unga nisbatan dushmanlik his-tuygʻularini his qilib, oldida turgan bolta bilan bir necha marotaba A.ning boshiga uradi. Ekspertiza xulosasiga koʻra, A.ning oʻlimiga nafas qisilishi, ya’ni B.ning boʻgʻishi natijasidagi mexanik asfiksiya sabab boʻlgan. B.ning jinoiy qilmishi va A.ning oʻlimi orasidagi sababiy bogʻlanish toʻgʻri aniqlangan. B.ning jinoyati toʻgʻri kvalifikatsiya qilingan. S.ning jinoiy qilmishi esa qasddan odam oʻldirishga suiqasd deb topilgan. Uning jinoiy qilmishi ham toʻgʻri kvalifikatsiya qilingan (Surkhandarya Regional Court, 2024).

2) “ikkinchi qoida – hodisalar sun’iy izolyatsiyasi (factual causation, causation in fact – but-for test) boʻlib, unda hodisalarni sun’iy ravishda ajratib olish tamoyilini qoʻllash lozim. Mazkur tamoyil oʻziga xos “uchlik”dan iborat boʻlib, birinchidan, shaxs xulq-atvorini ajratib olish lozim, chunki uning xulq-atvori jinoiy qilmishdan iborat boʻlsa, jinoiy qilmish kelib chiqqan oqibatning zaruriy sababi hisoblanadi. Ikkinchidan, sabablar (sababiy bogʻlanish) zanjiridan zaruriy shart-sharoitlarni ajratib olish kerak, chunki zaruriy shart-sharoit zaruriy sababga koʻmaklashuvchi kategoriya hisoblanadi. Uchinchidan, kelib chiqqan oqibatni ajratib olish lozim.

V.B. Malinin va A. Bikovlar: “Sababiy bogʻlanishni tahlil qilishda nafaqat ishonchli tarzdagi, balki ehtimoliy sababiy bogʻlanishlar ham hisobga olinishini”, – ta’kidlashadi (Malinin, 2015; Bykov, 1969, pp. 137-143).

Bunday ilmiy yondashuvga qoʻshilmaymiz. Sababiy bogʻlanish masalasini toʻgʻri hal etishda uni zaruriy shart sifatida ishonchli tarzda mavjudligini batafsil aniqlash talab etiladi. Bu aniqlashda sababiy bogʻlanish obyektiv tarzda mavjud boʻlganligi ham inobatga olinishi lozim.


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

3) uchinchi qoida – jinoiy oqibatdan qilmishga qarab borish metodi (uslubi) boʻlib, unda boshlangʻich nuqta jinoiy oqibat deb belgilanadi. Buning asosiy sababi sud-tergov amaliyotida birinchi oʻrinda roʻy bergan ijtimoiy xavfli oqibat aniqlanadi va u jinoyat obyektiga yetkazilgan zararni aniqlab beradi. Moddiy tarkibli jinoyatlarda birinchi aniqlanadigan belgi bu ijtimoiy xavfli oqibatdir. Masalan, hayot uchun muhim boʻlgan a'zo – yurakka pichoq urilgan murdaning topilishi. Ikkinchidan, sababiy bogʻlanish muayyan sabablar zanjiridan iborat boʻlib, uni bilish va aniqlash uchun bir zanjir boʻlagidan ikkinchisiga oʻtish lozim boʻladi.

V.N. Kudryavsevning fikricha, sababiy bogʻlanish, – bu yonma-yon joylashgan, ketma-ket sodir boʻlgan hodisalar orasidagi bogʻlanishdan iborat emas. Koʻp hollarda sabab va oqibat bir-biridan boshqa hodisalar zanjiri bilan ajralib turishi ham mumkin (Kudryavtsev, 1960, p. 188).

A.Y. Rijankov va M. Lisoyelar: "Roʻy bergan oqibatlar uchun jinoiy javobgarlik faqat harakatlar oqibatlardan sababiy bogʻlanishning bittadan koʻp boʻlmagan boʻgʻinlari bilan ajratilgan hollardagina yuzaga kelishini", – aytishadi (Rijankov, 2021; Lisoe, 1970, pp. 109-114). Yuqoridagi fikrni qoʻllab quvvatlab boʻlmaydi, chunki sababiy bogʻlanish nafaqat bir nechta hodisalar boʻgʻinlari, balki butun sabablar (sababiy bogʻlanish) zanjiridan iborat hisoblanadi.

N.F. Kuznetsova: "Kriminogen zanjir boʻylab oqibatdan uning sabablariga oʻtayotganda, sababiy bogʻlanishlar qaytarib boʻlmaydigan holat ekanligini unutmaslik kerak", – deb toʻgʻri ta'kidlagan (Kuznetsova, 1984, p. 12).

Sababiy bogʻlanishni aniqlash va u bilan bogʻliq muammoni hal etish uchun jinoiy oqibatdan qilmishga qarab borishda sababiy bogʻlanish zanjirining bir halqasidan ikkichisiga oʻtishda qat'iy ketma-ketlik qoidasiga rioya qilish lozim boʻladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda shunday vakolatga ega subyekt birinchi navbatda, zararning eng yaqin bevosita sababini aniqlashi lozim. Soʻngra mantiqiy ketma-ketlikda keyingi qatorlarda joylashgan holatlarning sababini oʻrganishi va aniqlashi kerak. Jinoiy oqibat-sabablar (sababiy bogʻlanish) zanjiri jinoiy qilmish uslub (metod)i asosida qat'iy ketma-ketlikka rioya qilinishi lozim (Xudaykulov, 2025, pp. 96-97).

Quyidagi misolda yuqoridagi fikrni asoslaymiz.

Vatanparvar avtomaktabida instruktor boʻlib ishlagan A. oʻquvchilar B., V. va G.lar bilan yuk avtotransportida amaliy haydash mashgʻulotlarini bajarish uchun avtomaktabning amaliy mashqlar bajarish maydoniga chiqadilar. Instruktor A. oʻquvchi B.ga yuk avtotransportini boshqarish uchun uning oldiga oʻtirishga va oʻquvchilar V. va G.larga ushbu yuk avtotransportining orqasiga oʻtirishga ruxsat beradi. Oʻquvchi B. yuk avtotransportini boshqarish malakasiga hali yetarlicha ega emas edi. Oʻsha kuni hammayoq muzlagan, bir kun oldin qor yoqqan edi. Yoʻlning muzlagani natijasida yuk avtotransporti muzda sirgʻanib agʻdarilib ketadi. Yuk avtotransporti orqasida oʻtirgan oʻquvchilardan biri G. vafot etadi (Surkhandarya Regional Court, 2024).

Jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish muammosini hal etish va uni aniqlashda yuqoridagi zaruriy muhim qoidalarga qoʻshimcha ravishda yana toʻrtinchi qoidani ham keltirish lozim boʻladi. Ilmiy maqolamizda bu qoidani *sababiy bogʻlanishning oltin qoidasi* deb ataymiz. Bizning fikrimizcha, sababiyatning oltin qoidasidan foydalangan holda har qanday sababiy bogʻlanish yoki amaliyotchilar uchun eng qiyin hisoblangan sababiy bogʻlanish muammosini hal etish mumkin boʻladi.

Bitta mahallada yashovchi A. va B.lar oʻrtasida janjal chiqadi. Oʻzaro urish janjal vaqtida A. B.ning boshiga urib, B.ga tan jarohati yetkazadi. A. tomonidan yetkazilgan tan jarohati

tufayli B.ning bosh yumshoq toʻqimalari jarohat olgan. Mazkur tan jarohati B.ning miyasiga qon quyilishiga olib kelgan va B. voqea joyida vafot etgan. B.ning qilmishi jinoyat qonunining ehtiyotsizlik orqasida odam oʻldirish (JK 102-m.) bilan kvalifikatsiya qilingan va u ushbu jinoyatda aybli deb topilgan. Sud tibbiyot ekspertizasi xulosasiga koʻra, B.ning oʻlimiga olib kelgan miya qon quyilishining rivojlanishidagi hal qiluvchi jihat miya asosidagi arterial tomirlarining patologiyasi sabab boʻlgan. Yuqori instansiya sudi: "A. B.ning miya tomirlaridagi patologik oʻzgarishlar mavjudligini bilmagan va u B.ning yuziga qoʻli bilan urgan. A. B.ni urgan paytda B.ning oʻlimi kelib chiqishi mumkinligini bilmagan va bunga uning koʻzi ham yetmagan. Bunday oʻziga xos holatlarda A.ning harakati va undan kelib chiqadigan oqibatlar oʻrtasida sababiy bogʻliqlik mavjud emas. Bu holat yuzasidan jinoyat ishi tugatilishi lozim", – deb ta'kidlaydi (Surkhandarya Regional Court, 2025).

**Xulosa**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, amaliyotda sababiy bogʻlanish muammosini hal etish, jinoyat huquqi nazariyasi va sud-tergov amaliyotini yaxshilash boʻyicha quyidagi qoidalar va prinsiplarning qoʻllanishi lozimligini taklif va tavsiyalar sifatida ilgari suramiz:

1) sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmish va jinoiy oqibat oʻziga xos tizimli ketma-ketlikda namoyon boʻladi. Bunda *qilmish albatta jinoiy oqibatdan oldin* sodir etiladi. Shuning uchun birinchi oʻrinda kelib chiqqan ijtimoiy xavfli oqibatni aniqlash eng toʻgʻri qadam boʻlib hisoblanadi;

2) *maxsus mantiqiy izolyatsiyalash* (yakkalab ajratib olish) qoidasini qoʻllash kerak. Bu qoidaga koʻra, shaxs jinoiy xulq-atvori va roʻy bergan oqibatni yakkalab, mantiqan maxsus ajratib olinishi lozim;

3) "oqibat-qilmish" tamoyilini ketma-ketlikda qoʻllash lozim. Bu tamoyilga koʻra, roʻy bergan oqibatdan qilmishga qarab boriladi;

4) sababiy bogʻlanishning oltin qoidasi boʻlgan *mantiqiy istisno va inkor* qoidasi qoʻllanishi lozim. Ushbu qoidaga koʻra, muayyan jinoiy qilmish – jinoiy oqibat keltirib chiqaradi va shundagina sababiy bogʻlanish mavjud boʻladi. Jumladan, jinoiy qilmish sodir boʻlmasa, ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi mumkin emas.

Jinoyat huquqida sababiy bogʻlanish nazariyalari, konsepsiyalar va yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlarini tahlil qilgan holda jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega sababiy bogʻlanishning quyidagi belgilari va mezonlarini ilgari suramiz:

1*) jinoyat-huquqiy sababiy bogʻlanish belgilari:*

a) qilmish va oqibatning ijtimoiy xavfli hamda huquqqa xilofligi;

b) obyektivlik;

d) hodisalar oʻrtasidagi umumiy sababiy aloqaning qismi;

e) sabab-oqibat (sabab doim oqibatdan oldin kelishi);

f) zaruriy sababiy bogʻlanish.

*2) jinoiy qilmish va undan kelib chiqqan ijtimoiy xavfli oqibat orasidagi sababiy bogʻlanish quyidagi mezonlar orqali aniqlanadi:*

a) vaqt boʻyicha muvofiqlik;

b) qilmishning oqibatni keltirib chiqarish real imkoniyatiga egaligi;

d) qilmishning oqibatni keltirib chiqarish bosh va bevosita sababi (sharti) ekanligi;

e) oqibat har qanday boshqa qilmish emas, balki aynan sodir etilgan qilmish tufayli kelib chiqqanligi;

f) jinoiy qilmishsiz ijtimoiy xavfli oqibat vujudga kelmasligi (qilmish oqibat kelib chiqishining zaruriy sharti, ya'ni oqibat roʻy berishiga boshqa sabab emas, balki aynan sodir etilgan qilmish hal qiluvchi zaruriy shart ekanligi).


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

Jinoiy xulq-atvordan iborat qilmish va ro‘y bergan ijtimoiy xavfli oqibat orasidagi sababiy bog‘lanishning quyidagi shakllarini ajratamiz. Shuningdek, ushbu sababiy bog‘lanishning shakllarini quyidagi formulalarda ifodalash mumkin:

a) faol xulq-atvor – faol oqibat (natija) (F-F). Masalan, o‘t qo‘yish orqali mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish. Aybdor faol harakat sodir etib, avtotransport vositasiga o‘t qo‘yishi natijasida u yonib ketadi;

b) faol xulq-atvor – nofaol oqibat (natija) (F-N). Sodir qilingan faol ijtimoiy xavfli harakat ba’zida ijtimoiy xavfli bo‘lgan faol yoki nofaol oqibatning ro‘y berishiga sabab bo‘ladi. Bunga soliq yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashda soliq solinadigan obyektlarni kamaytirib ko‘rsatish yoki yashirish uchun hujjatlarni qalbakilashtirishni misol qilib keltirsa bo‘ladi. Hujjatlarni qalbakilashtirish – faol harakat. Uning oqibat esa nofaol (sust) hisoblanadi, ya’ni obyektlar uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi to‘liq to‘lanmaydi. Ushbu oqibat (natija) ning nofaol (sust) ligi faol xulq-atvor tufayli davlatda pul paydo ham bo‘lmaydi, yo‘qolib ham ketmaydi, ijtimoiy foydali harakat hisoblangan soliq o‘z vaqtida to‘langanida faol ijtimoiy foydali oqibat (natija) (davlat byudjeti pul mablag‘ining ortishi) yuz bergan bo‘lar edi;

d) nofaol (passiv) xulq-atvor – faol (aktiv) natija (N-F). Unda shaxsning nofaol xulq-atvori (harakatsizlik) jinoyatning asosiy sabablardan biri bo‘ladi, atrof muhitdagi o‘zgarishlar ro‘y bergan oqibat (natija) sifatida baholanadi (masalan, temiryo‘lda poyezdlar yo‘nalishini o‘zgartirib turuvchi, ya’ni yo‘nalish boshqaruvchisining harakatsizligi oqibatida yo‘nalish o‘zgartirishsiz qoldirilishi natijasida ikkita poyezd bir-biriga to‘qnashuvida namoyon bo‘ladi);

e) nofaol xulq-atvor – nofaol oqibat (natija) (N-N), unda sodir etilgan harakatsizlik bilan atrof-muhitdagi obyektiv o‘zgarishlar. Sodir etilgan harakatsizlik va uning natijasida ro‘y bergan ijtimoiy xavfli oqibat orasida bevosita aniq sababiy bog‘lanish mavjud bo‘lmaydi. Shu sababli jinoyat huquqida nofaol xulq-atvor – nofaol oqibat to‘g‘risidagi ilmiy yondashuvda olimlar o‘rtasida ko‘plab munozaralar mavjud, ammo mazkur ilmiy yondashuvda sabab – shart-sharoitlar majmuida, sababiyat o‘zaro bog‘liqlikda vujudga keladi. JK bilan qo‘riqlanadigan obyekt tizimiga aloqador bo‘lsa, o‘sha shaxs javobgarlikka tortilishi lozim bo‘ladi. Masalan, suzishni bilmaydigan shaxsni suvga tushishga kim ko‘ndirgan bo‘lsa yoki suvda cho‘kayotgan odamlarni qutqarish majburiyati belgilangan kasb egasi o‘sha kuni navbatchi bo‘lsa, ularning JK bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimiga aloqasi mavjud bo‘ladi (Conditio sine qua non – zaruriy shartsiz vaziyat yo‘q...).

Sababiy bog‘lanishni yuqoridagi to‘rtta shaklga ajratishga: sababiy bog‘lanish to‘g‘risidagi nazariyalar va konsepsiyalar; sababiy bog‘lanishni aniqlashda sababiyat zanjiri va shart-sharoitlar; sababiy bog‘lanishni aniqlashda mezon, prinsip va qoidalarni o‘rganish asos bo‘ldi.

## REFERENCES

1. Abzalova, X. M. (2020). *Ugolovno-pravoye i kriminologicheskie aspekty borby s ubiystvami [Criminal-legal and criminological aspects of the fight against murders]* (Doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

2. Bykov, A. (1969). Ustanovlenie prichinnoy svyazi v praktike arbitrazha [Establishing a causal relationship in arbitration practice]. *Soviet Justice,* (8).

3. Dzhekebaev, U. S. (2001). *Osnovniy printsipiy ugolovnogo prava Respubliki Kazakhstan (sravnitelniy kommentariy k knige Dj. Fletchera i A.V. Naumova "Osnovniy kontseptsii sovremennogo ugolovnogo prava") [Basic principles of criminal law of the Republic of Kazakhstan (comparative commentary to the book by J. Fletcher and A.V. Naumov "Basic concepts of modern criminal law")].* Seven Statutes.

4. Esakov, G. A. (2016). Prichinnaya svyaz v slozhniykh situatsiyakh ugolovno-pravovaya nauka i sudebnaya praktika [Causality in complex situations: Criminal law and judicial practice]. *Law. Journal of the Higher School of Economics,* (1), 81–102.

5. Firkins, G. (2023). Rethinking causation in English criminal law. *The Journal of Criminal Law, 87*(1), 18–38. https://doi.org/10.1177/00220183231151918

6. Herring, J. (2025). Criminal law and the relational self: Rethinking conceptions of harm and responsibility in an interdependent world. *Tilburg Law Review, 30*(1), 1–18. https://doi.org/10.5334/tilr.443

7. Kabulov, R., Otajonov, A. A., & Sottiyev, I. A. (2012). *Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish [Qualification of crimes].* Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

8. Kozachenko, I. Y., Kurchenko, V. N., & Zlochenko, Y. M. (2003). *Problemy prichinnoy svyazi v institutakh Obshey i Osobennoy chastey otechestvennogo ugolovnogo prava [Problems of causation in the institutions of the General and Special Parts of domestic criminal law]. Petersburg University Publ.*

9. Kudryavsev, V. N. (1960). *Obyektivnaya storona prestupleniya [The objective side of the crime].* Gosyurizdat.

10. Kuznetsova, N. F. (1984). *Problemy kriminologicheskoy determinatsii [Problems of criminological determination].* Moscow University Publ.

11. Lisoe, M. (1970). Prichinnaya svyaz po delam o prestupleniyakh dolzhnostniykh lits [Causal connection in cases of crimes committed by officials]. *Soviet Justice,* (19), 16.

12. Malinin, V. B. (2015). Teorii prichinnoy svyazi v ugolovnom prave [Theories of causation in criminal law*]. Legal Thought,* (6), 137–143.

13. Molchanov, D. M. (2016). *Aktualniy problemiy ugolovnogo prava [Current issues of criminal law].* Prospect.

14. Ochilov, X. (Ed.). (2020). *Jinoyat huquqi [Criminal law].* Adolat.

15. Otajonov, A. A. (2023). *Jinoyatda ishtirokchilik institutining jinoyat-huquqiy tartibga solinish [Criminal law regulation of the institution of participation in a crime].*TSUL Publ.

16. Reed, A., Bohlander, M., Simpson, B., & Adams, V. (Eds.). (2025). *Causation in criminal law: A research companion.* Routledge. https://doi.org/10.4324/9781003492962

17. Rkhankov, A. Yu. (2021). Teoretiko-pravovoy analiz prichinnoy svyazi v sluzhebnoy xalatnosti [Theoretical and legal analysis of causality in official negligence]. *Economics, Sociology, Law,* (2), 109–114.

18. Rustambayev, M. X. (2018). *Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]*. Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan.

19. Soktoev, Z. B. (2014). *Prichinnost v ugolovnom prave: teoreticheskie i prikladnie problemiy [Causality in criminal law: theoretical and applied problems]* (Doctoral dissertation). Moscow State Legal Academy.

20. Soktoev, Z. B. (2017). *Teoretiko-metodologicheskie osnoviy prichinnosti v ugolovnom prave [Theoretical and methodological foundations of causality in criminal law]* (I. E. Zvecharovskiy, Ed.). UNITY-DANA.

21. Summers, A. (2018). Common-sense causation in the law. *Oxford Journal of Legal Studies, 38*(4), 793–821. https://doi.org/10.1093/ojls/gqy028

22. Surkhandarya Regional Court. (2024). *Materials from the Surkhandarya Regional Court archive: Case No. 1-1314-2402/122.* Surkhandarya Regional Court, Republic of Uzbekistan.

23. Surkhandarya Regional Court. (2025). *From the materials of the Surkhandarya Regional Court archive: Case No. 1-1117-2702/136.* Surkhandarya Regional Court, Republic of Uzbekistan.

24. Traynin, A. N. (1957). *Obchee uchenie o sostave prestupleniya [General doctrine of the elements of a crime].* Gosyurizdat.

25. Usmonaliyev, M., & Bakunov, P. (2010). *Jinoyat huquqi. [Criminal law].* Nasaf.

26. Witjens, E. (2014). Considering causation in criminal law. *The Journal of Criminal Law, 78*(2), 164–183. https://doi.org/10.1350/jcla.2014.78.2.909

27. Xasanov, T. X. (2019). *O‘g‘rilik uchun jinoiy javobgarlik va oldini olish [Criminal liability and prevention of theft]* (Doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

28. Xudaykulov, F. X. (2025). *Jinoyat huquqida sababiy bog‘lanish [Causation in criminal law]*. Impress Media.

29. Zdravomyslov, B. V. (Ed.). (2005). Ugolovnoe pravo Rossii. [Criminal Law of Russia]. Yurist.

# KRIMINOLOGIYA

## VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2.